

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**G.Mirzaaxmedova, B.Sh.Shermuhammadov**

Xorij tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarda analistik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasining yoritilishi ..... 9

**A.A.Tolametov**

Umumiy o'rta ta'limga muktablari o'quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida tadqiqot ..... 15

**I.R.Jumaniyazov**

Talabada musiqa ta'limi jarayonida kreativ qobiliyatni aniqlash va rivojlantirish ..... 20

**Sh.I.Allamuratov**

Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini pedagogik tahlil qilish ..... 24

**N.M.O'rino, M.I.Muxammadjonova**

Xorijiy ta'limda tyutorlik dasturlarining mohiyati va ulardan foydalanish imkoniyatlari ..... 30

**N.M.Merganova**

Chet tili darslarida dialogik nutq turi va polilogdan foydalanish ..... 36

**A.A.Tolametov, M.M.Baxromov**

Kompyuterning inson hayoti va salomatligi uchun ta'siri ..... 40

**Y.U.Egamberdiyeva**

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchisining ochiq qo'shma faoliyatini metodik rivojlantirish texnologiyalari ..... 44

**A.Abdulayev, J.Abdullahayev**

Jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni bolalar va o'smirlar organizmning funksiyasiga ta'siri ..... 52

**Q.Y.Nazirov**

Yosh kurashchilarni dastlabki texnik va taktik tayyorlashning uslubiy asoslari ..... 57

**T.T.Yusupov**

Kurashchhlarning texnik mahoratini oshirish yo'llarini o'rgatish mexanizmlari ..... 61

**Б.Б.Хайтбаева, Ф.А.Алижонова**

Роль ритмической гимнастики в развитии координации движений у детей с нарушениями развития ..... 64

**O.N.Madaminov**

Jismoniy tarbiyani boshqa fanlar bilan bog'liqligi ..... 71

**S.Muzafarova**

Yangi O'zbekiston yoshlari tafakkurini rivojlanishda sharq mutafakkirlari va jadid ma'rifatparvarlarining san'at va madaniyat sohasiga doir qarashlarining estetik xususiyatlari ..... 74

**N.Sh.Urinova**

Boshlang'ich ta'limda ingliz tili fanini o'qitish jarayonida steam texnologiyasidan foydalanishning roli ..... 78

**D.D.Boymirzayeva**

Bo'lajak ta'limga menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning nazariy jihatlari ..... 83

**I.Ikromov**

Gimnastika mashqlari komplekslarini tuzish va o'tkazishga qo'yiladigan talablar va ularni turli maktabgacha yoshidagilar uchun tuzish metodikasi ..... 87

**E.Rahimov**

O'zbek xalq qo'shiqlarining yoshlari ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi roli va vazifalari ..... 94

**Sh.B.Bekchonova**

Kiberpedagogikaning ilk rivojlanish davrlari va hozirgi kunda ta'limga samaradorligini oshirishga ta'siri ..... 98

**Z.Y.Xamraqulov**

Jinoyat huquqi rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslari ..... 101

**E.B.Nabiyev**

Tarix fanini o'qitishda mustaqil ta'limga topshiriqlaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati ..... 107

**O.A.Василиченко**

Профессиональное самосознание педагога - музыканта – хормейстера ..... 111



УО'К:378+71

**YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI TAFAKKURINI RIVOJLANISHDA SHARQ  
MUTAFAKKIRLARI VA JADID MA'RIFATPARVARLARINING SAN'AT VA MADANIYAT  
SOHASIGA DOIR QARASHLARINING ESTETIK XUSUSIYATLARI**

**АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ВОСТОЧНЫХ  
МЫСЛITЕЛЕЙ И ДЖАДИДОВ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ НА ПУТИ РАЗВИТИЯ МЫШЛЕНИЯ  
МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА**

**ANALYSIS OF THE RESEARCH OF AESTHETIC FEATURES OF EASTERN THINKERS  
AND JADID ENLIGHTENERS ON THE WAY OF DEVELOPMENT OF THINKING OF YOUTH OF  
UZBEKISTAN**

**Muzafarova Saodat**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Vokal kafedrasi dotsenti, O'zbekiston  
Respublikasida xizmat ko'satgan madaniyat xodimi

**Annotatsiya**

*Ma'nnaviy yangilanish jarayonlarida musiqa san'atiga milliy-estetik qadriyat sifatida yondashish, musiqaning an'anaviy va zamonaviy yo'nalishlarini yanada ravnaq toptirish maqsadida bir qator dasturlar ishlab chiqildi. Ayniqsa, mumtoz va zamonaviy musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi, shuningdek, musiqa san'atini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda. Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston yoshlарining ongi, tafakkurini yuksaltirishda musiqa san'ati, uning inson omiliga ta'siri Sharq mutafakkirlari va jaded ma'rifatparvarlarining mazkur soha rivojiga doir qarashlari hamda mazkur qarashlarning estetik xususiyatlari falsafiy tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В процессе духовного обновления был разработан ряд программ, призванных приблизить музыкальное искусство как национальную эстетическую ценность, дальнейшего развития традиционных и современных направлений музыки. В частности, проводится большая научно-исследовательская работа по сохранению и изучению нашего классического и современного музыкального наследия, проводятся научные конференции, направленные на поддержку музыкального искусства. В данной статье рассматривается музыкальное искусство в воспитании сознания и мышления молодежи Нового Узбекистана, а также проанализировано его влияние на человеческий фактор, взгляды восточных мыслителей и просвещенных интеллектуалов на развитие этой области и эстетические характеристики данных взглядов.*

**Abstract**

*In the process of spiritual renewal, a number of programs have been developed designed to bring musical art closer as a national aesthetic value, and to further develop traditional and modern music trends. In particular, a lot of scientific research is being carried out to preserve and study our classical and modern musical heritage, scientific conferences are being held aimed at supporting the musical art. This article examines the musical art in the education of consciousness and thinking of the youth of New Uzbekistan, as well as analyzes its influence on the human factor, the views of Eastern thinkers and enlightened intellectuals on the development of this field and the aesthetic characteristics of these views.*

**Kalit so'zlar:** musiqa madaniyati, san'at, Sharq mutafakkirlari, jadidlar qarashlari, ijod, musiqiy tafakkur, risola

**Ключевые слова:** музыкальная культура, искусство, восточные мыслители, взгляды на прошлое, творчество, музыкальное мышление, трактат

**Key words:** music culture, art, Eastern thinkers, views of the past, creativity, musical thinking, treatise

**KIRISH**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar milliy va ma'nnaviy qadriyatlarning tiklanishida, zamonaviy barkamol insonni shakllantirishda ma'nnaviy omillar masalasiga yangicha yondoshish, shaxsning milliy madaniyati rivojlanishiga o'zgacha munosabatning e'tirof etilishi jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichga kirganligini ko'satadi.

## PEDAGOGIKA

Ma'naviy yangilanish jarayonlarida musiqa san'atiga milliy-estetik qadriyat sifatida yondashish, musiqaning an'anaviy va zamonaviy yo'nalişlarini yanada ravnaq toptirish maqsadida bir qator dasturlar ishlab chiqildi. Ayniqsa, mumtoz va zamonaviy musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi, shuningdek, musiqa san'atini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda.

Jamiyatning ma'naviy yangilanish jarayonida milliy tafakkurini yangilash va tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qoldi. Mazkur vazifa yoshlarni ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy jihatdan har tomonlama kamol toptirish uchun ta'lif-tarbiyaning barcha sohalarida, jumladan, milliy va ma'naviy tarbiyaning omillari va vositalarini ishga solishni taqazo etmoqda.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

"Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim omil – bu ta'lif-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir". Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokot masalasidir" - degan fikridan ham bilsa bo'ladiki, tarbiya insonning, insoniyatning yashab turishi uchun eng muhim ma'naviy ibratdir. Ana shu fikrlarning tasdiqi o'laroq, milliy va ma'naviy qadriyatlar negizi asosida musiqiy tafakkurni shakllantirishda an'anaviy ijrochilik mahoratining o'rni va roliga alohida e'tibor qaratish mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy islohotlar samaradorligini oshirishda, demokratik tamoyillarni qaror toptirishda hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshqarishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlarda yuksak odamiylik fazilatlarni shakllantirishda, shuningdek, ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishda musiqiy tafakkurning o'rni va roli muhim ahamiyatga ega. Yoshlarda musiqiy tafakkurni shakllantirish, mazkur jarayonni yangilash, uni zamon talablariga mos tarzda yuksaltirish hamda yoshlarning badiiy-musiqiy dunyoqarashini kengaytirish bilan bog'liq muammolar jamiyat ijtimoiy hayotining dolzarb masalalariga aylangan. Zero, "Mumtoz musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rganish, uni yosh avlodga bezavol yetkazish maqsadida ko'plab ko'rik-tanlovlar, nufuzli xalqaro musiqiy anjumanlar muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda", - degan fikrning falsafiy mohiyati ham yoshlar musiqiy tafakkurining yangilanish jarayonlarini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan. Chunki milliy musiqada xalqning ruhi, xis tuyg'ulari, kechinmalari, orzu-umid va armonlari o'z ifodasini topgan. Kishilar undan estetik zavq va ruhiy madad oladilar. Ular baxtli va quvonchli daqiqalarda ham, hayotning shafqatsiz zarbalaridan chorasisiz qolgan og'ir va musibatli onlarida ham beihtiyor musiqaga talpinadilar va undan taskin topadilar.

Shu nuqtai nazardan bugungi kunda yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirishda an'anaviy o'zbek musiqa madaniyatining o'rni va rolini tadqiq etish o'zining dolzarbliji bilan ajralib turadi.

Mumtoz musiqiy madaniyat shaxs kamolotining barcha bosqichlarida unga falsafiy, axloqiy, estetik g'oyalarni singdirishda, yuksak insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda, shuningdek, musiqiy tafakkurni shakllantirishda muhim ruhiy-emotsional omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek milliy musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, bugungi kungacha u o'zining ma'naviy va moddiy qudratini saqlab kelmoqda.

O'zbek sharqshunos olimlarining yangi tadqiqotlari va o'rta asrdagi mutafakkirlarining musiqiy madaniyatga oid risolalari o'zbek xalqi musiqiy tafakkur taraqqiyotining tarixiy jarayonini tasavvur va tatqiq qilishimizga yordam beradi.

Aksariyat tadqiqotlarda musiqaning metodologik muammolari, uning mazmuni va shakli, musiqani idrok etishning mezonlari, musiqashunoslik ilmining asosiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan bo'lib, uning falsafiy-estetik mohiyati tadqiq qilinmagan;

o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan musiqiy merosni idrok etish bilan bog'liq muammolar va uning ta'sir xususiyatlarga tegishli masalalar, shu jumladan, mumtoz musiqa va zamonaviy qo'shiqchilik an'analariga doir ilmiy tadqiqotlarning estetik mohiyati umumiylari xarakterga ega.

Faylasuf olim Abdulla Sher Arastuning forig'lanish haqidagi ta'lilotini tahlil qilib, unda mohiyatan qo'rquv yoki achinish tufayli inson qalbi salbiy hissiyotlardan forig'lanadi, natijada inson, bir tomonidan, taqdir ko'rgilklariga xotirjam qaray boshlasa, ikkinchi tomonidan, baxtsizlik girdobiga tushganlarga o'zida hamdardlik hissini tuyadi, deydi: "Siz san'at asarini idrok etganingizdan so'ng mayda hislardan forig'lanasiz, ma'naviy jihatdan kechagiga qaraganda bir bosh yuksakka

ko'tarilasiz. Arastu aytgan katarsis-forig'lanish mana shu. San'at ana shu forig'lanish vositasida insonni tarbiyalaydi. Forig'lanishning estetik mohiyati ana shunda"[1;40].

Chunonchi, Ibn Sino musiqaning kelib chiqishini inson nutqining boyligi bilan bog'laydi: xushomad qilayotganda ovoz pasayadi, mag'rur so'zlayotganda, qat'iy jaranglaydi. U musiqani inson kayfiyatiga taqliddir, deydi[2;48]. Sharq olimlari musiqani dastlab falsafa ilmlaridan biri, deb hisoblaganlar va qomusiy asarlar tarkibiga kiritganlar. Bunda ular shubhasiz, musiqaning badiiy - estetik kuchi va ijtimoiy tarbiyaviy rolini hisobga olgan edilar. Biroq, yuqorida bildirilgan fikrlar musiqaning estetik xususiyatlari, uning shaxs ma'haviyatidagi o'rni, musiqa estetikasining ta'sir ko'lami hamda uning umumnazariy va umummetodologik muammolarini yoritishga bag'ishlangan mavjud tadqiqotlarni inkor etmaydi. Shu bois ularni quyidagicha tasniflashtirish maqsadga muvofiq:

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'rta asr musulmon Sharqi mutafakkirlari madaniyatning adabiyot, she'riyat, musiqa, xattotlik, notiqlik singari turlarini o'rganishga oid boy falsafiy-estetik meros qoldirganlar. Ular musiqiy madaniyatni axloq va nafosat mezonlari bilan baholaganlar, uning mohiyatini axloq va nafosat uyg'unligida ko'rganlar. Jumladan, Farobiy o'zining "Katta musiqa kitobi"da, Safiuddin Urmaviyning musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog'iyning "Jami al-alxon fi-ilm al-musiqiy" risolasida, Ahmadiyning "Sozlar munozarasi" nomli asarida, Zaynullobiddin Xusayniy "Risolai dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy" risolasida, Amuliyning "Musiqliy risola"larida inson musiqiy tafakkurining rivojlanishi va cholq'ularning ahamiyatini o'rganish bilan birga, uni tadqiq etish masalalari hamda o'z davrlarning musiqiy cholq'ulari haqida ma'lumotlar berishgan.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda milliy musiqa madaniyatida musiqiy tafakkur tushunchasi, uning mohiyati va mazmuniga oid fudamental tadqiqotlar G.Riman, E.Praut, G.Katuar tomonida o'rganilgan. Ular asosan musiqiy tafakkurning mantiqiy-psixologik va funksional jixatlarini tahlil etishgan.

Mutaqil hamdo'stlik davlatlarida V.M.Belyayev, V.A.Uspeniskiy, I.V.Sposobin, B.Kabalevskiylar tomonidan musiqiy tafakkurning falsafiy-pedagogik muammolarini tahlil qilingan.

Keyingi yillarda milliy musiqa madaniyatini va uning yoshlar musiqiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari, aqliy qobiliyatiga oid bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari bo'lganligini alohida e'tirof etish mumkin. Jumladan, yoshlarning musiqiy tafakkurni shakllantirish masalalarining umumnazariy va metodologik hamda tarixiy jixatdan yoritishda I.R.Rajabov, Y.Rajabi, F.Karamatov, O.Matyakubov, T.G'ofurbekov, R.Yunusov, kabi musiqashunos olimlarning ilmiy-nazariy g'oyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu izlanishlarda musiqiy tafakkurda shaxsnинг ijodiy va tanqidiy fikrlashi, ijtimoiy faolligi masalalariga o'rinni berish zarurligi asoslangan. Shuningdek, musiqiy tafakkurning rivojlanishi va uning o'ziga xos xususiyatlarini hamda yangilanish tendensiyalarini pedagogika qonuniyatlarini bog'lab o'rganishda, R.G'ofurov, D.Soipova, M.Mamirov, D.Djamalova, O.Vasilchenko, S.Malikova, A.Xasanov, A.Umarov, S.Dadajonovlarning xizmatlari kattadir.

Yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-estetik, ma'naviy-ma'rifiy, pedagogik-psixologik asoslarini ilmiy tahlili bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqot ishlari hamda maqolalar chop etilgan. Bu borada Q.Ro'zmatzoda, A.Qambarov, I.Siddiqov kabi olimlarning maxsus ilmiy tadqiqot ishlarini alohida qayd etish mumkin.

Mayjud chop qilingan adabiyotlar, manbalar va izlanishlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, yoshlar musiqiy tafakkurining mohiyati, uni yuksalishining o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishda an'anaviy ijrochilikning tutgan o'rni masalasi mustaqil tadqiqot obyekti siftida maxsus o'rganilmagan.

- musiqiy tafakkur va uni yoshlarda shakllanishi, rivojlanishining jamiyat ma'naviy hayotidagi "miqdor" va "sifat" o'zgarishlari dinamikasi bilan aloqadorligi ilmiy asoslangan;

- yoshlar musiqiy tafakkurini rivojlantirishda oiladagi ijodiy muhit, innovatsion ta'llim, kitobxonlikning yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirishdagi akmeologik-gumanistik roli ochib berilgan;

- jamiyatda ma'naviy muhit qaror topishining tarixiy va zamonaviy determinatlari (musiqiy makonda bilimlar generatsiyasiga ma'naviy, ma'rifiy, madaniy sohadagi o'zgarishlarning ta'siri) yoshlar musiqiy tafakkurini rivojlantirishning obyektiv omillari ekanligi ilmiy asoslangan.

### XULOSA

Xulosa sifatida musiqa insonni tarbiyalash vositasi bo'lib, unda yuksak fikr va tuyg'ular, nafosat, dil quvonchlari, armon va orzular hosil qiladi, insonning ijodkorlik qobiliyatini oshiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, san'at garchand fandan ko'ra o'ziga xos usulda ko'zda tutgan

## PEDAGOGIKA

maqsadi ham bir qadar boshqacha bo'lsa-da, ilm-fan bilan doimo uzviy bog'liq. Chunki, muayyan san'at asari ilmiy o'r ganilayotgan falsafiy muammolarni ham qamrab oladi.

Bugungi kun yoshlari musiqiy tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy va pedagogik jihatlarini tadqiq qilish, shuningdek, yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirish va uni o'zbek an'anaviy musiqasi orqali jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri, xususan O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichidagi ahamiyatini chuqur anglab yetish bizning oldimizga qo'yilgan pirovard maqsadlarimizdandir. Ushbu fikrlardan kelib chiqib quydagi xulosalarga to'xtaldik:

- mumtoz musiqa madaniyatining yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirishdagi tutgan o'rni va roli;
- yoshlarning musiqiy tafakkurni shakllantirishda an'anaviy o'zbek musiqa madaniyatining roli masalalarini tadqiq etish;
- mumtoz musiqa durdonalaridan unumli foydalanish yoshlarning ma'naviy barkamol bo'lib tarbiya topishlarida muhim omil ekanligi bilan axamiyatlidir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдулла Шер, Баҳодир Ҳусанов, Эркин Умаров. Эстетика. Услубий қўлланма. –Тошкент: Университет, 2008. – 40-48 б.
2. Исҳоқ Ражабов Мақомлар Тошкент Санъат нашриёти ,2006. -19 б.
3. Musiqa tarixi O.Ibroximov, G'.Xidoyev., T.: - 2018 y., 247 bet
4. Vokal va zamonaviy musiqa M.Nasritdinova., darslik F.: 2023 y. 137-142 betlar
5. O'zbek xalq musiqa ijodi M.Nasritdinova. O'quv qo'llanma T.: 2023 y. 78 bet
6. <https://lex.uz/docs/-5818990?ONDATE=12.01.2022%2000> O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 12.01. 2022 19-son qarori
7. Musiqa ijodiyoti masalalari. Maqolalar to 'plami. 2-kitob. - T., 2002.
8. Saodat Muzafarova (2023). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAK TABLARIDA MILLIY VOKAL-XOR IJROCHILIGI MUAMMO VA YECHIMLARI. Science and innovation, 2 (Special Issue 7), 106-109. doi: 10.5281/zenodo.8041814
9. Музарова, С. (2023). МУЗЫКА И ЕЁ ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ СРЕДНЕВЕКОВЫХ МЫСТИТЕЛЕЙ ВОСТОКА. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/4), 410–415. <https://doi.org/10.47390/SP1342V3S14Y2023N51>
10. X.X.Нурматов. Мусиқанинг долзарб назарий муаммолари.Тошкент -2002. 2-bet.